

## O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI VA BU BOZORDA KAPITAL JALB QILISHNING ISTIQBOLLARI

**Gulbahor Matyoqubovna Baqoyeva**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, PhD, "XMI" kafedrası dotsenti

[gulibakoeva@gmail.com](mailto:gulibakoeva@gmail.com)

**Khamza Khamidovich Qilichov**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar eng moslashuvchan moliyaviy instrumentlardan biri bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar fuqaro huquqlarining obyekt sifatida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlatirishga yaqindan yordam beradi. Avvallari, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari mulk munosabatlarida ishlatilgan (obligatsiyalar, lotoreya chiptalari, tashqi savdo aylanmasidagi veksellar). Hozirgi kunga kelib esa iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish qimmatli qog'ozlarning turlarini qayta tiklash va yangi turlarini yaratishni talab qildi. O'z navbatida ushbu bozor tomonidan taqdim etiladigan barcha imkoniyatlarni o'rganish bu bozorda kapital jalb qilishning zamonaviy usullarini tahlil qilish zaruriyatini ham keltirib chiqardi.

**Kalit so'zlar:** Qimmatli qog'ozlar, iqtisodiyot, bozor, kapital.